



ANDIJON VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

**ANDIJON VILOYATIDA
MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI
FAOLIYATI
2023- yilda**



Madaniyat bu - inson faoliyati va uning ahamiyatini belgilovchi ramziy vositalar va asarlar yig'indisidir. Madaniyat musiqa, adabiyot, san'at, me'morchilik, teatr, kino va turmush tarzi kabi faoliyatlarda namoyon bo'lishi mumkin. Antropologiyada «madaniyat» atamasi mahsulot va ularning ishlab chiqarilishi, estetik qiymati va shu jarayonlar bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni bildiradi. Bu jihatdan madaniyat san'at, fan va manaviy tizimlarni o'z ichiga oladi.

Madaniyat - bu jamiyat, shaxsning ijodiy kuchlari va qobiliyatlari tarixiy rivojlanishining ma'lum darajasi. U kishilar hayoti va faoliyatining turli jabhalarida, ular yaratayotgan moddiy va ma'naviy ne'matlarda namoyon bo'ladi.

San'at ijtimoiy ong va inson faoliyatining o'ziga xos shaklidir. San'at qadimiy tarixga ega bo'lib, u jamiyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida inson faoliyatining rivojlanishi bilan bog'liq holda paydo bo'la boshlagan.


San'at odamlarning estetik ehtiyojlarini qondirish bilan birga, o'z taraqqiyotining turli bosqichlarida jamiyat a'zolarini ma'lum bir ruhda tarbiyalash, ularning aqliy va hissiy rivojlanishi, shaxsning turli maqsadlari, his-tuyg'ulari, qiziqishlari va ideallarini ifodalash vositasi bo'lib xizmat qilgan. Estetik tafakkur tarixida san'at go'zallik qonuniyatlari asosida qandaydir tarzda narsa va hodisalarni aks ettirish va hayotni badiiy tarzda ifodalash g'oyasiga aylangan.

Teatr san'ati azaldan insoniyatning ma'naviy hayotida o'z o'rnini egallagan. Ming yillar avval qadimgi Hindiston, Qadimgi Xitoy va Qadimgi Yunonistonda teatr dastlab bir, keyin ikki bosqichdan iborat bo'lib, shundan keyingina jamoaviy san'at turiga aylangan. Spektakl jamoaviy ijod mahsuli bo'lib, bugungi kunda boshqacha qilib aytganda, rejissyor, dramaturg, aktyor, rassomning ijodiy izlanishlarining mahsulidir. Demak, sahna san'atkorning muttasil ijodkorligini ko'rsatadi, aktyor zamonaviy san'atga uning ruhi, ijodiy kayfiyati bilan bog'liq bo'lgan nimadir qo'shadi yoki olib tashlaydi.


O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI MUZEYLAR

Viloyatimizda 2023- yilda jami muzeylar soni **7** tani tashkil etgan. Shundan, muzey filiallari soni **5** taga teng. Muzeylarga tashrif buyuruvchilar soni esa, **74,1** ming kishidan iborat bo‘lib, ulardan o‘quvchi va talabalar ulushi **90,8 %** ni tashkil etgan.


O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan muzeylar soni,
(tegishli yil uchun birlikda)



Muzeylar sonini hududlar kesimida taqsimlanishi,
(2023- yil uchun, birlikda)



Muzeyga tashrif buyuruvchilar sonini hududlar kesimida taqsimlanishi ,
(2023- yil uchun, ming kishi)




Bugungi kunda viloyatimiz muzeylarida turli xildagi buyumlar va eksponatlar mavjud bo‘lib, 2023- yilda muzeylardagi jami asosiy fond eksponatlari soni **156 271** tani tashkil etgan. Muzey eksponatlarining **571** tasi rassomlik, **462** tasi grafika, **53** tasi haykaltaroshlik, **3 518** tasi amaliy san’at, **12 769** tasi numizmatika, **46 421** tasi arxeologiya buyumlari, **20 903** tasi suratlar, **13 552** tasi hujjatlar, **2 661** tasi maishiy va etnografik buyumlar va **14 630** tasi boshqa eksponatlardan iborat.

Muzeylar faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari,
2023- yil uchun, birlik

Ekskursiyalar soni	290
Ma’ruzalar soni	48
Ko‘rgazmalar soni	11


Muzeylardagi asosiy fond eksponatlari soni,
2023- yil uchun, birlik



ANDIJON VILOYATIDAGI TEATRLAR

2023- yilda viloyatimizda jami teatrlar soni 3 tani tashkil etdi. Teatrlarda namoyish etilgan spektakllar (tomoshalar) soni 694 tani tashkil etdi. Taqdim etilgan spektakllarga tashrif buyurgan tomoshabinlar soni 177,7 ming nafarni tashkil etgan.

O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan teatrlar soni (tegishli yil uchun, birlik)



Teatrlarning janrlar bo'yicha taqsimlanishi, birlik



Hududlar kesimida (2023- yil uchun, birlik)


Andijon sh.	15
Xonobod sh	0
Oltinko'l	0
Andijon	0
Baliqchi	0
Bo'ston	0
Buloqboshi	0
Jalaquduq	0
Izboskan	0
Ulug'nor	0
Qo'rg'ontepa	0
Asaka	0
Marhamat	0
Shahrixon	0
Qizilqum	0
Yul'to'ra	0



ANDIJON VILOYATIDAGI TEATRLAR

Teatrga tashrif buyurgan tomoshabinlar soni


(tegishli yil uchun, ming kishi)




2023- yilda jami teatrlar soni **3** tani tashkil etib, ushbu teatrlarda namoyish etilgan spektakllar (tomoshalar) **694** tani tashkil etdi. Taqdim etilgan spektakllarga tashrif buyurgan tomoshabinlar soni **177,7** ming nafarni tashkil etgan.

Teatrlarda namoyish etilgan spektakllar soni

(tegishli yil uchun, birlik)




Faoliyat olib boriladigan tillar bo'yicha teatrlar soni, (2023- yil, %.)



Teatrlarga tashrif buyurgan tomoshabinlar sonini hududlar kesimida taqsimlanishi

(2023- yil uchun, ming kishi)




ANDIJON VILOYATIDA KONSERT TASHKILOTLARI VA SIRK


Viloyatimizda **2023-** yilda jami faoliyat ko'rsatayotgan konsert tashkilotlari soni **3** tani tashkil etadi. Konsert tashkilotlari tomonidan amalga oshirilgan konsertlar soni **402** tani tashkil etgan. Shuningdek, tinglovchilar soni jami **537,5** ming nafarni tashkil etdi.

2023- yilda konsert tashkilotlari faoliyati

Konsert tashkilotlari soni
(birlik)



Konsertlar soni
(birlik)




Xizmat ko'rsatilgan tinglovchilar soni
(ming kishi) **537,5**



2023- yilda faoliyat turlari bo'yicha konsert tashkilotlari, birlik



Konsert tashkilotlar sonini hududlar kesimida taqsimlanishi, (2023- yil uchun, birlik)




2023- yilda konsert tashkilotlarining faoliyati faoliyat turlari bo'yicha

	Konsertlar soni, <i>birlik</i>	Ulardan qishloq aholisi uchun, <i>birlik</i>	Xizmat ko'rsatilgan tinglovchilar soni, <i>ming kishi</i>	Ulardan qishloq aholisi uchun, <i>ming kishi</i>
filarmoniya	225	-	317,5	-
gastrol-konsert	177	-	220,0	-
mustaqil jamoalar	-	-	-	-
konsert zallari, san'at saroylari	-	-	-	-

Andijon viloyatida sirk Andijon shahrida o'z faoliyatini olib boradi. 2023- yilda sirkdagi namoyishlar soni **137**tani tashkil etgan. Namoyishlarda ishtirok etgan tomoshabinlar soni esa **28,0** ming kishini tashkil etgan. Shtatdagi artist xodimlar soni jami **174** nafarga teng bo'lib, umumiy soniga nisbatan artist ayollar ulushi (**80** nafar) **46,0** % ni tashkil etdi.

2023- yilda sirk faoliyati




ANDIJON VILOYATIDA BOTANIKA VA HAYVONOT VA ISTIROHAT BOG‘LARI

Andijon viloyatida jami **1** ta hayvonot bog‘i mavjud bo‘lib, u o‘z faoliyatlarini Buloqboshi tumanida olib bormoqda. Shu bilan birga, hayvonot bog‘iga **57,4** ming kishi tashrif buyurgan, shundan **39,6** ming nafari bolalardir.

Viloyatimiz hayvonot bog‘idagi o‘simlik va hayvonot dunyosining xilma-xilligi o‘ziga xosligi bilan tashrif buyuruvchilar e‘tiborini tortadi. Bu yerda, xususan, hayvonot dunyosi **58** ta turi, o‘simlik dunyosining **36** ta turi mavjud. Hayvonot dunyosi namunalari umumiy soni **379** tani va o‘simlik dunyosi namunalari **3 310** nusxani tashkil etadi .


Hayvonot bog‘larning maydoni

(2023- yil uchun, ga)



2023- yilda hayvonot bog‘ining faoliyati (birlik)

Buloqboshi hayvonot bog‘i



58 hayvonot dunyosi namunalari, 36 o‘simlik dunyosi namunalari

Hayvonot bog'larining hayvonot dunyosi
(2023- yil uchun, turlar)

19

Baliqlar



2

Sudralib yuruvchilar



16

Parrandalar



1

Ham quruqlikda,
ham suvda
yashovchilar



17

Sut emizuvchilar




3

Boshqalar

ANDIJON VILOYATIDA MADANIYAT VA DAM OLIISH ISTIROHAT BOG‘LARI

2023- yilda viloyatimizda **21**ta madaniyat va istirohat bog‘lari mavjud bo‘lib, ularning viloyat hududlari bo‘yicha taqsimlanishi eng ko‘p Xonobod shahrida (**4**) va Andijon shahrida (**3**) madaniyat va istirohat bog‘lari mavjudligini ko‘rsatdi. Marhamat (**3**) Paxtaobod (**2**) va qolgan barcha tumanlarda bunday ko‘rsatkichlar boshqa tumanlarga nisbatan past .

Madaniyat va dam olish istirohat bog‘lari 2023- yil uchun, birlik



madaniyat va dam
olish istirohat bog‘lari

attraksionlar

istirohat bog‘lari umumiy
maydoni, ga

411,8

qatnovlar, ming kishi

385,7

Statistik ko'rsatkichlarga izoh

Madaniyat — inson faoliyati va shu faolliyatning ahamiyatini belgilovchi ramziy qurilmalar va asarlar majmuidir. Madaniyat musiqa, adabiyot, san'at, me'morchilik, teatr, kino va turmush tarzi kabi faoliyatlarda namoyon bo'lishi mumkin.

Madaniy meros bu — xalqning yoki jamoaning moddiy va nomoddiy merosidir, uni saqlab qolish va keyingi avlodlarga yetkazish uchun vasiyat qilingan. Bunga e'tiqodlar, bilimlar, badiiy ifodalar, me'yorlar va qadriyatlar, ijtimoiy amaliyotlar, urf-odatlar, joylar, obyektlar va madaniyatning har qanday boshqa ifodalari kiradi.

Madaniy meros obyektlari — moddiy va nomoddiy madaniy meros obyektlari.

Moddiy madaniy meros obyektlari — tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan ansambllar, diqqatga sazovor joylar va yodgorliklar.

Nomoddiy madaniy meros obyektlari — tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan urf-odatlar, xalq ijodiyoti (so'z, raqs, musiqa, tomosha san'ati), shuningdek ular hamda xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'ati bilan bog'liq bilimlar, ko'nikmalar, asbob-anjomlar, artefaktlar, madaniy makonlar.

Diqqatga sazovor joylar — inson va tabiat ijodining mushtarak mahsuli, shuningdek tarixiy, arxeologik, shaharsozlik, estetik, etnologik yoki antropologik qimmatga ega bo'lgan hududlar, shu jumladan xalq hunarmandchiligi maskanlari, tarixiy manzilgohlar yoki shaharsozlik tarixiy markazlari va tarixiy (shu jumladan harbiy) voqealar, yodgorliklar, atoqli tarixiy shaxslarning hayoti bilan bog'liq bo'lgan imoratlar, xotira joylari, tabiiy landshaftlar, shuningdek, ko'hna shaharlar, shahristonlar, manzilgohlar, qarorgohlar imoratlarining madaniy qatlamlari, qoldiqlari, marosimlar bajo etiladigan joylar.



**Press-relizni tayyorlash uchun mas'ul:
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi**

**Andijon viloyati statistika
boshqarmasi**

**Manzil: 170100, Andijon sh.,
Milliy Tiklanish ko'chasi, 36-
A uy
tel.: +(74) 228-48-51**



e-mail:sdg@stat.uz



www.andstat.uz



**facebook.com/andstataxboro
t**

